



## OLIV TA'LIMDA RAQAMLI RESURLARNI O'QUV JARAYONIGA QO'LLASHNING ILMIY ASOSLARI

*Urazmetova Sh .A.*

*TATU Urganch filiali dotsenti*

**Tayanch so'zlar:** raqamli resurs, axborot kompetentlik, raqamli ta'lim muhiti.

**Ключевые слова:** цифровой ресурс, информационная компетентность, цифровая образовательная среда.

**Key words:** digital resource, information competence, digital educational environment.

Kirish. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi darajasi yuksak bilimli mutaxassislarni, erkin fikrlashga qodir ijodkorlarni talab etadi. Bu esa zamonaviy pedagogikaning ana shunday raqobatbardosh shaxsni rivojlantirish usullarini ishlab chiqish vazifasini qo'yadi. So'nggi o'n yilliklarda bu vazifa ta'lim jarayoniga turli pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va tadbiiq etish orqali muvaffaqiyatli hal etilmoqda. Ta'limni takomillashtirishning zamonaviy imkoniyatlari ijtimoiy tarmoqlar va axborot-kommunikasiya texnologiyalari (AKT) ni o'quv jarayoniga keng joriy etish orqali amalga oshiriladi [1].

Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish va masofaviy ta'limni rivojlantirish, vebinar, onlayn, "Flipped classroom", "Blended learning", "Flesh" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish muhim vazifalardan hisoblanadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.**

Respublikamizda A.A.Abduqodirov, B.A.Abdullaeva, M.M.Aripov, U.Sh. Begimqulov, R.Boqiev, F.Zokirova, R.G.Isyanov, M.H.Lutfillaev, N.A.Muslimov, M.E.Mamarajabov, D.Mamatov, I.I.Taylaqov, D.Toshtemirov, S.Q.Tursunov, A.G'.Hayitov, Sh.S.Sharipov, R.D.Shodiev, T.T.Shoyardonov, U.Yuldashev kabi olimlar tomonidan o'tkazilgan ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan texnologiyalarning tarkibiy qismi bo'lgan axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish, axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va metodik asoslari hamda elektron adabiyotlar, elektron axborot-ta'lim resurslari, dasturiy

qobiqlarni yaratish, ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

MDHda raqamli resurslarni talim jarayoniga tadbiiq etishni o'rganish bo'yicha B.S.Gershunskiy, M.A.Ivanova, E.I.Mashbits, O.S.Stepanovalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada qo'yilgan maqsadlarni bajarish uchun pedagogik metodlar, ya'ni adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv metodlardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Ma'lumki, "Blended learning", "Flipped classroom", "Flesh" texnologiyalari o'quv jarayonini tashkil etish shakllari bo'lib, unda talabanning kreativ va tizimli fikrlash, mustaqil qaror qabul qila olish, ilmiy faoliyatni tashkil etishga oid ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi jihatlar mavjud. Shu bilan birga, o'qitishning bu shakllari mustaqil ta'limga asoslangan bo'lib, unda shaxsni o'z-o'zini tashkillashtira olish, rivojlanishdan to'xtamaslik, maqsadlarini aniq belgilash, istiqbolini ko'ra olish ko'nikmalarini shakllantiradi. Rivojlanishning hozirgi tendentsiyalari insonning uzluksiz ta'lim (Life longing education) olishini talab qilmoqda. Buning uchun inson-tadqiqotchi bo'lishi lozim.

XXI asrdagi tadqiqotchilikning muhim hususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: – axborotni yaratish; – axborotni qidirish; – axborotni saralash; – axborotni o'zlashtirish. Yuqoridagi "Blended learning", "Flipped classroom", "Flesh" texnologiyalarining to'g'ri va o'z o'rnida qo'llanilishi oliy ta'lim talabalarini aynan shu malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga va rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu texnologiyalar aktsiz samarali amalga oshmaydi. Shu jihatdan ham, oliy ta'limda professor-o'qituvchi va talabanning axborot kompetesiyasi alohida o'ringa ega. Axborot kommunikasiya texnologiyalarining rivoji elektron ta'limning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Elektron ta'lim (inglizcha Electronic Learning, qisqacha E-Learning) – axborot va elektron texnologiyalari vositasida ta'lim olish demakdir. YUNESKO elektron ta'limga quyidagicha ta'rif beradi: E-Learning – Internet va multimedia yordamida ta'lim olishdir. Elektron ta'lim olish quyidagilarni qamrab oladi:

- televizor, DVD, mobil telefon, shaxsiy kompyuter va boshqa vositalardagi elektron materiallar bilan mustaqil ishlash;
- masofaviy muloqotga kirishib hududiy (mintaqaviy) jihatdan uzoqda joylashgan ekspert (o'qituvchi)lardan maslahat, yo'nalish va baho olish;
- virtual ta'lim olish faoliyatini yo'lga qo'ygan ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilar jamoalarini yaratish;
- elektron o'quv materiallarini o'z vaqtida va kun davomida etkazib bera olish (elektron o'quv materiallari standartlari, masofadan o'qitishning maxsus vositalari) va hokazo.



"XXI asr - axborotlashtirish asri" da ta'lim sohasiga raqamli ta'limni joriy etish, har bir ta'lim muassasasida:

- o'qitish va o'qish jarayonining;
- ta'lim muassasasi boshqarilishining;
- ta'lim muassasasi faoliyati muhitining axborotlashtirilishini talab qiladi.

Ta'lim muassasida raqamli ta'lim muhitini tashkil etish bosqichlari psixologik axborot muhitini yaratishdan boshlanadi [3]. O'quv-uslubiy vazifalari bo'yicha raqamli quyidagi resurs turlari ajratiladi (1.1-jadval).

### 1.1-jadval

#### O'quv-uslubiy vazifalari bo'yicha raqamli resurs turlari.

Elektron darsliklar	An'anaviy darsliklarning prototiplari; asl elektron darsliklar; mavzuga asoslangan o'quv tizimlari; mavzuga asoslangan o'quv muhitlari.
Elektron o'quv qo'llanmalar	Repetitorlar; trenajyorlar; mashg'ulot; mashg'ulot-nazorat; o'yin; interfaol; mavzu to'plamlari; ma'lumotnomalar va lug'atlar; amaliy va laboratoriya.
elektron nazorat nashrlari	Testlar; test topshiriqlari; test sinovlariga oid metodik tavsiyalar; vositalar.
Raqamli tasvir-matnli ma'lumotga ega bo'lgan ta'lim resurs	Darslik va o'quv qo'llanmalar; boshlang'ich manbalar va antologiyalar; o'qish uchun kitoblar; muammoli kitoblar va testlar; lug'atlar; ma'lumotnomalar; entsiklopediyalar; davriy nashrlar; me'yoriy hujjatlar; sonli ma'lumotlar; dasturiy ta'minot va o'quv materiallari.
vizual axborotli raqamli resurs	To'plamlar: illyustrasiyalar; fotosuratlar; portretlar; jarayon va hodisalarning video parchalari; tajribalar namoyishlari; video kursi; Modellar: 2-3 o'lchamli statik va dinamik; virtual reallik ob'ektlari; interaktiv modellar. Ramziy obektlar: diagrammalar; diagrammalar; formulalar. Mavzu maydonlari uchun xaritalar
Audio axborotli raqamli resurs	Spektakllarning ovoz yozuvlari; musiqa asarlarining ovoz yozuvlari; yovvoyi tabiatning ovoz yozuvlari; jonsiz tabiatning ovoz yozuvlari; sinxron audio ob'ektlar

Bugungi kunda deyarli barcha oliy ta'lim muassasalarida kompyuter va o'quv resurslari to'plami mavjud. Kompyuterlardan keyingi o'rinni ta'lim jarayonini yaxshilash uchun raqamli ta'lim resurslari (RTR) egallay boshladi. Elektron o'quv materiallari didaktik vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun sharoit yaratuvchi potentsialga ega. Ta'lim jarayoniga raqamli ta'lim resurslarini joriy etish ta'lim jarayonining yangi usullaridan foydalanishni, o'qituvchining pedagogik kompetentligini takomillashtirishni taqozo etadi.



Resurs -deganda jarayon (ta'lim) ni amalga oshirish uchun zahira, manba, vosita, imkoniyat tushuniladi.

D.A.Sabitova fikriga ko'rat a'lim resurslarining 3 turi mavjud bo'lib, ular: axborotli, electron va raqamli. Axborot resurslar electron va raqamli resurslarni o'z ichiga oladi deb ta'kidlaydi[2].

Zamonaviy ta'limni raqamli ta'lim resurslari (RTR) ga asoslangan axborot-kommunikatsiya ta'lim texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin.

**Xulosa va takliflar.** Raqamli ta'lim texnologiyalari (mexanizmlar)ni jadal rivojlantirish va ularni ta'limga tadbiq etish an'anaviy o'qitish vositalarini sezilarli darajada va samarali to'ldirishi mumkin. Raqamli ta'lim resurslaridan (RTR) foydalanish ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish uchun tubdan yangi imkoniyatlar beradi. Raqamli resurs -o'qitishda aniqlik vositasi, talabalarning amaliy ko'nikmalarini ishlab chiqishda, talabalarning yutuqlarini (joriy nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish) tashkil etish, o'tkazish va xolisona baholash va kuzatishda, diagramma, grafiklar, jadvallar, simvollar va boshqalar bilan ishlashda yordamchi., matnlarni tahrirlash va formatlashda hamda talabalarning ijodiy ishlaridagi xatolarni tuzatishda. Raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishning asosiy maqsadi axborot jamiyatida talabalarning intellektual imkoniyatlari va qobiliyatlarini mustahkamlash hamda AKTdan foydalanish orqali ta'lim tizimining barcha darajalarida ta'lim sifatini oshirishdan iborat. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Oliy ta'limda raqamli resurslarni o'quv jarayoniga qo'llash talabalarning kompetentligini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Роберт И.В. Новые информационные технологии в образовании. Учебное пособие. М.: Педагогика, 1995.
2. Сабитова Д.А. Создание и использование цифровых образовательных ресурсов и интерактивных технологий в учебном процессе.
3. Сулейменова Г.Г. Развитие информационно-коммуникационных технологий в образовании // Наука и жизнь Казахстана. 2011. № 1. С. 222–226.

#### РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada oliy ta'limda raqamli resurslarni o'quv jarayoniga qo'llashning ilmiy asoslari va raqamli resurslarning afzalliklari, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda raqamli resurslarning o'rni bo'yicha ilmiy fikr va mulohazalar keltirilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В этой статье представлены научные основы применения цифровых ресурсов в высшем образовании к учебному процессу и научные размышления о преимуществах цифровых ресурсов, роли цифровых ресурсов в повышении качества и эффективности образования.

#### SUMMARY

This article presents the scientific foundations of the application of digital resources in higher education to the educational process and scientific reflections on the advantages of digital resources, the role of digital resources in improving the quality and effectiveness of education.